



THE ROLE OF SPIRITUALITY IN PUBLIC SAFETY

Gulsanam Sultonmurodovna Roziyeva

Lieutenant Colonel

Senior Lecturer of the Department of Special-Professional Disciplines

Advanced Training Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: spirituality, public safety, spiritual education, crime, civic consciousness, enlightenment, prevention, society, peace.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This article analyzes the importance of spiritual factors in ensuring public safety. It highlights how spirituality affects the human personality and social relations in society, its role in preventing crime and crime. At the same time, the participation of the family, educational institutions, neighborhood and mass media in spiritual education is explained with examples. Based on scientific and theoretical sources and practical experience, proposals are put forward to strengthen the spiritual environment in ensuring public safety.

MA'NAVIYATNING JAMOAT XAVFSIZLIGIDAGI ROLI

Gulsanam Sultonmurodovna Ro'ziyeva

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi podpolkovnik

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ma'naviyat, jamoat xavfsizligi, ma'naviy tarbiya, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, fuqarolik ongi, ma'rifat, profilaktika, jamiyat, tinchlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Ma'naviyatning inson shaxsiyatiga va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, uning huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishdagi o'rni yoritiladi. Shu bilan birga, oila, ta'lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalarining ma'naviy tarbiyadagi ishtiroki misollar bilan ochib beriladi. Ilmiy-nazariy manbalar va

amaliyot tajribalari asosida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy muhitni mustahkamlash bo'yicha takliflar ham ilgari suriladi.

РОЛЬ ДУХОВНОСТИ В ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Гульсанам Султонмуродовна Розиева

Подполковник, старший преподаватель

кафедры специальных профессиональных дисциплин

Института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: духовность, общественная безопасность, духовное воспитание, преступность, преступность, гражданское сознание, образование, профилактика, общество, мир.

Аннотация: В статье анализируется значение духовных факторов в обеспечении общественной безопасности. В нем подчеркивается, как духовность влияет на личность человека и социальные отношения в обществе, а также ее роль в предотвращении преступности и правонарушений. При этом на примерах поясняется участие семьи, образовательных учреждений, общества и средств массовой информации в духовном воспитании. Также выдвигаются предложения по укреплению духовной среды в обеспечении общественной безопасности, основанные на научно-теоретических источниках и практическом опыте.

«Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir»

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Bugungi globallashuv, axborot tarqalishining tezligi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar fonida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xavfsizlik — bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki butun jamiyatning, har bir fuqaroning faol ishtiroki talab etiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayonda ma'naviyatning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ma'naviyat — insonning ongi, axloqi va dunyoqarashini shakllantiradigan ruhiy-ma'rifiy tartibdir. U shaxsning nafaqat shaxsiy hayoti, balki jamoatdagi xulqi va munosabatlarida ham aks etadi. Agar jamiyatda ma'naviy muhit mustahkam bo'lsa, u yerda qonunbuzarlik, jinoyatchilik, beqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi. Aksincha, ma'naviy tanazzul yuz bergan jamiyatlarda huquqbuzarlik, beqarorlik va xavfsizlikka tahdidlar ortib boraveradi. Ma'naviyat — bu insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va qadriyatlar majmuasidir. U

jamoat xavfsizligining kafolati sifatida insonlarning huquqbuzarlikka nisbatan shaxsiy immunitetini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, fuqarolarda yuksak fuqarolik mas‘uliyati va huquqiy ongni shakllantirishdir. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek: “Jamiyatda ma‘naviyat yuksak bo‘lsa, u erda adolat bo‘ladi, tinchlik bo‘ladi, xavfsizlik bo‘ladi”.

Ma‘naviyat faqat shaxsiy tarbiya darajasi emas, balki millatning, jamiyatning taraqqiyot bosqichini, ma‘rifatga va ilm-fanga munosabatini ham ifoda etadi. Shu jihatdan, ma‘naviyatni yuqori darajada saqlash — barqaror jamiyat qurishning muhim kafolatlaridan biridir. “Бугун маънавият бошқа соҳалардан ўн қадам олдинда юриши, маънавият янги кучга, янги ҳаракатга айланиши керак”.

Har bir millatning o‘ziga xos ma‘naviy qadriyatlari, urf-odatlar va an‘analari bo‘lib, ular milliy o‘zlikni shakllantiradi. O‘zbek xalqining ma‘naviy hayotida insoniylik, oqibat, keksaga hurmat, vatanparvarlik, hayotga muhabbat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar o‘z o‘rniga ega. Bunday qadriyatlar faqat bizning milliy taraqqiyotimizda emas, balki jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta‘minlashda ham asosiy o‘rin tutadi.

Ma‘naviyat — jamoada ahillik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydigan omil hisoblanadi. Bunday muhitda tartibsizliklar, mojarolar va zo‘ravonlik uchun joy qolmaydi. Shu ma‘noda, ma‘naviy kamolot jamiyatda tinchlik va xavfsizlik asoslaridan biri hisoblanadi.

Milliy ma‘naviyat — bu shunchaki urf-odatlar emas, balki umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda fuqarolarda yuksak fuqarolik ongini shakllantiradi. Shu orqali jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarga qarshi ma‘naviy immunitet paydo bo‘ladi.

Shaxs ma‘naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, u faqat o‘zini emas, balki jamiyat manfaatini ham e‘tiborga oladi. Bunday shaxslar qonunlarga rioya qiladi, jamoat tartibini buzmaydi, fuqarolik burchini ado etadi. Ular muammolarni kuch bilan emas, mulohaza va o‘zaro hurmat orqali hal qilishga harakat qiladi.

Jamiyat miqyosida qaralganda, ma‘naviy yuksaklik — ijtimoiy barqarorlikning kafolati hisoblanadi. Bu holatda aholining huquqbuzarlikka moyilligi kamayadi, jinoyatchilik ko‘rsatkichlari pasayadi. Xususan, yosh avlodni ma‘naviy tarbiyalash orqali ularning to‘g‘ri yo‘ldan borishini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy, tashkilotchilik va texnik mexanizmlari qanchalik muhim bo‘lmasin, ularning samaradorligi fuqarolarning ma‘naviy etukligi, ichki ongi va ijtimoiy mas‘uliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamoat xavfsizligi — jamiyatdagi umumiy tartib, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, mulki, erkinligi va huquqlarini turli ichki va tashqi tahdidlardan muhofaza qilishga qaratilgan murakkab va keng qamrovli davlat faoliyatidir. Bu tushuncha nafaqat huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish, balki ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning birdamligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligiga oid bir qator me'yorlar qayd etilgan. Bundan tashqari, "Jamoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa tuzilmalarning faoliyati jamoat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarini tashkil qiladi.

Mamlakatda xavfsizlik konsepsiyasining huquqiy poydevori davlatning insonparvarlik siyosatiga asoslangan bo'lib, fuqarolarning xatarsiz, erkin va osoyishta hayot kechirishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, jamoat xavfsizligi davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jamoat xavfsizligi — bu jamiyatda tinch, osuda va xavfsiz muhitni ta'minlash demakdir. Buning uchun esa fuqarolarning ma'naviy etukligi zarur:

- Ma'naviy tarbiya olgan insonlar qonunlarga rioya qiladi.
- Ular jamoat joylarida tartib saqlashga hissa qo'shadi.
- Jinoyatchilikka qarshi immunitet shakllanadi.
- Yoshlar buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushmaydi.

Ma'naviy tarbiya faqatgina maktab va oliygohlarda emas, balki oilada, mahalla va ommaviy axborot vositalari orqali ham amalga oshirilishi kerak. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim muassasalarida, ommaviy axborot vositalari orqali, internet tarmoqlarida sog'lom turmush tarzi, yuksak ma'naviy fazilatlar targ'ib etilishi orqali jamiyat xavfsizligiga xizmat qiluvchi shaxslar yetishib chiqishi mumkin. Chunki jinoyat sodir etishning "ildizi" ko'p hollarda ma'naviy kamchilik, axloqiy zaiflik va ijtimoiy mas'uliyatsizlikdan kelib chiqadi. Shu bois jinoyatchilikning oldini olishda ma'naviy tarbiyaning o'rni alohida ahamiyatga ega.

1. Oiladagi ma'naviy muhit

Oila — shaxsning ilk ma'naviy va axloqiy tarbiya maskani. Bolada yaxshilik va yomonlik haqidagi ilk tushunchalar, jamoatga nisbatan munosabat, qonunga itoat yoki e'tiborsizlik aynan oila muhitida shakllanadi. Agar oilada mehr-oqibat, o'zaro hurmat, halollik, sabr va mas'uliyat kabi ma'naviy qadriyatlar hukm suradigan bo'lsa, bu bolaning kelajakda huquqbuzarga emas, mas'uliyatli fuqaroga aylanishiga zamin yaratadi. Shu bois, profilaktik ishlar orasida ota-onalar

bilan maqsadli suhbatlar, ma'naviy ta'lim berish, oilaviy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya

Maktab, kollej, litsey va universitetlar faqat bilim berish joyi emas, balki shaxs ma'naviyatini shakllantiradigan muhitdir. Pedagogik jamoalarning ma'naviy saviyasi, o'quv dasturlaridagi tarbiyaviy yo'nalishlar va maktabdan tashqari tadbirlar yoshlarda qonunga va jamiyatga munosabatni shakllantiradi. Misol uchun, "Tarbiyaviy soatlar", "Yoshlar ma'naviyati oyligi", "Qonunga itoat — oliy qadriyat" kabi loyihalar, ayniqsa, o'rta maktab sinflarida huquqbuzarlikka qarshi ongli immunitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Mahalla va jamoat tashkilotlari faoliyati

Mahalla — jamiyatning eng yaqin ijtimoiy bo'g'ini. Unda ma'naviy muhitni saqlash, yoshlarni nazorat qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ogohlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Har bir mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jumladan: profilaktik suhbatlar, ma'naviyat kunlari, yoshlar bilan ishlash bo'yicha "Yoshlar daftari"ni yuritish, shunchaki rasmiy tadbirlar emas, balki qonunbuzarlikka olib boruvchi omillarning ildizini aniqlash va bartaraf etishning ma'naviy mexanizmlaridir.

4. Internet va OAV orqali ma'naviy ta'sir

Aholining, ayniqsa, yoshlarning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy manbalardan biri — bu ommaviy axborot vositalari va internet. Shu bois, internetda jinoyatni targ'ib etuvchi, zo'ravonlikni normallashtiruvchi va yoshlar ma'naviyatini buzuvchi kontentlarga qarshi kurashish kerak. Bir vaqtning o'zida, ijobiy, tarbiyaviy va milliy qadriyatlarni targ'ib etuvchi materiallar, video-yozuvlar va maqolalarni ko'paytirish talab etiladi. Bu borada davlat organlari bilan birga bloggerlar, jurnalistlar va ijtimoiy faollar ham ma'naviy targ'ibotning faol ishtirokchisi bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, ma'naviyat fuqarolarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Ular nafaqat o'zining, balki jamiyatning xavfsizligiga ham befarq bo'lmaydi. Shu boisdan, fuqarolarning ma'naviy saviyasi oshsa, jamiyatda huquqbuzarlik holatlari kamayadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat jamoat xavfsizligi uchun asosiy "ichkaridan nazorat" mexanizmi hisoblanadi. U shaxsning ichki tartibi, jamiyatdagi xulqi, va bir-biriga bo'lgan munosabatida o'z aksini topadi. Shu bois, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy tarbiyaga e'tibor berish, oiladan tortib to davlat siyosatigacha bo'lgan darajada ustuvor vazifa sifatida belgilanishi kerak. Jinoyatchilik va huquqbuzarlik faqat huquqiy muammo emas, balki ma'naviy muammodir. Shu bois, uning oldini olish uchun faqat jazo emas, tarbiya, ma'rifat va ichki ongini

rivojlantirish zarur. Oila, ta'lim, mahalla va ommaviy axborot vositalari birgalikda ma'naviy muhitni mustahkamlasa, jamiyat xavfsizligiga jiddiy hissa qo'shgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi 2021 yil 6 noyabr, [www. strategy.uz](http://www.strategy.uz).
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi
4. Каримов И.А. "Юксак маънавият — енгилмас куч", Тошкент, "Маънавият", 2008.
5. Ҳасанова М. "Маънавий тарбия ва жамоат хавфсизлиги", Ижтимоий фанлар журнали, №3, 2020.
6. S.Otamuratov "Siyosiy madaniyatni rivojlantirish omillari".
7. "Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш концепцияси", Тошкент, 2017.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси материаллари, 2021.
9. Jalilov Abdulatif Abdullaevich "O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatining rivojlanish jarayonlari" 23.00.03 – "Siyosiy madaniyat va mafkura" siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2020.